

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TARBIYA FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi tarbiya asoslari fanidan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash, talabgorlarning tarbiya fani bo'yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli "Umumta'lim fanlarini kasbiy ta'lim yo'nalishiga mos tanlov fanlari orqali o'qitishni tashkil etish to'g'risidagi" qo'shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

1. Insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlari.
2. Fuqarolik hissi.
3. Yashashdan maqsad munosib hayot.
4. O'z-o'zini anglash.
5. Inson va jamiyat.
6. Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar.
7. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya.

8. Tadbirkorlik asoslari.
9. Ekologik tarbiya.
10. Tinch va xotirjam yashash baxti.
11. Tarbiya fanining huquqiy asoslari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlari.	Men insonman. Go'zal fazilatlar. Muomala va muloqot asoslari.	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini topadi, to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajrata oladi, tenglik va haqqoniylik prinsiplari hamda etiket qoidalarini amaliy misollarda qo'llay oladi. Shuningdek, to'g'ri javobni topish, atama va faktlarni eslash, qoidalarni vaziyatga mos qo'llab, yechimini topadi. Xatolarni topish, taqqoslash orqali sabab-oqibatni aniqlaydi hamda mustaqil fikr yuritib asosli dalillar yordamida to'g'ri xulosani topadi.	7%	3
2	Fuqarolik hissi.	Vatanparvarlik. Daxldorlik, fuqarolik hissi. Oilaviy qadriyatlar Inson va jamiyat. Birlashgan o'zar. Qonun o'zi nima? Yaxshi qonunlar va mas'uliyatli odamlar.	Fuqarolik hissi va daxldorlik prinsiplarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladi. Fuqarolik huquq va burchlarini farqlaydi shuningdek, to'g'ri javobni topish, faktlarni qo'llab, hayotiy vaziyatlarga moslashtirib amaliy yechimini topadi. Xatolarni aniqlab taqqoslash orqali sabab-oqibat bog'liqliklarini topadi. Mustaqil fikr yuritib, asosli dalillar, mantiqiy izchillik va xulosalarni tahlil qiladi.	6%	2
3	Yashashdan maqsad munosib hayot.	Munosib hayot qurish tamoyillari. Oilaviy qadriyatlar. Oliy maqsad.	Munosib hayot tamoyillarini farqlaydi, muvaffaqiyatga erishish omillarini aniqlab, vaqtni samarali taqsimlash mezonlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llaydi. Baxtiyorlik hissining mazmunini tahlil qilish jarayonida to'g'ri javobni topadi. Qoidalarni vaziyatga mos tatbiq etish, amaliy yechimini aniqlash, xatolarni topish, taqqoslash orqali sabab-oqibat bog'liqliklarini topadi, shuningdek, tahlil qilib, to'g'ri xulosani aniqlaydi.	7%	3
4	O'z-o'zini anglash. O'saman va rivojlanaman.	O'z-o'zini anglash, o'zgarish, tanqidiy	Hissiyotlarni farqlaydi, jamiyat yoki shaxsiy rivojlanishdagi o'zgarishlarni aniqlaydi hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari	10%	4

		fikrlash. Salomatlik ulkan boylik.	asosida ularni tahlil qiladi. Turli xil vaziyatlarning yechimini topadi va xulosasini aniqlaydi.		
5	Inson va jamiyat.	Jamiyat, mahalla, oila, din, madaniyat.	Jamiyat, mahalla, oila, din va madaniyat tushunchalarini aniqlay oladi. Ushbu tushunchalarni bir-biridan farqlay oladi. Har bir tushunchaning vazifalarini hayotiy vaziyatlarda ko'rsatadi. Mustaqil fikr, dalillar keltirish, izchillik, asoslangan xulosani aniqlaydi.	22%	9
6	Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar.	Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar, ogohlik.	Ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyati va tahdidlarini aniqlaydi. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda global tarmoqdagi xavfsizlik va odob-axloq qoidalarini real vaziyatlarda qo'llaydi. Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, muloqot madaniyati va axborot haqqoniyligini tahlil qiladi.	7%	3
7	Ilm-ma'rifat. Innovatsiya.	Ilm-ma'rifat, innovatsiya, liderlik. Vaqt- bebaho ne'mat.	Ilm-ma'rifatning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda innovatsion va liderlik yondashuvlarining ahamiyatini aniqlaydi. Shuningdek, to'g'ri javobni aniqlash, termin va faktlarni aniq eslab qo'llash, qoidalarni amaliy kontekstga moslashtirib, muammolarning yechimini topadi. Tanqidiy fikrlash, taqqoslash va sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, mustaqil fikr yuritib, asosli dalillarni aniqlaydi. Mantiqiy izchillikni ta'minlash va puxta, ilmiy asoslangan xulosalarni topadi.	15%	6
8	Tadbirkorlik asoslari.	Tadbirkorlik, frilanserlik. Shaxsiy rivojlanish.	Tadbirkorlik va frilanserlik tushunchalarini farqlaydi. Moliyaviy va vaqt resurslarini samarali boshqarish, shuningdek, real vaziyatlarda tadbirkorlik yoki frilanserlik yondashuvlarini amaliy tarzda tatbiq etadi. Qoidalarni vaziyatga mos tatbiq etadi va amaliy yechimini aniqlaydi. Xatolarni aniqlash, taqqoslash orqali sabab-oqibat munosabatlarini ko'rsatadi. Asosli dalillarni tahlil qiladi.	7%	3
9	Ekologik tarbiya.	Tabiat va inson. Ekologik istirohat bog'i.	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini izohini topadi. Tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlay oladi. Hayotiy vaziyatlarda ekologik qarorlarni tatbiq eta oladi. Tabiiy resurslar va ularning turlari haqida termin va faktlarni aniqlay	7%	3

			oladi. Tabiat va inson o'rtasidagi ta'sirni tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi. Qarorlarni baholaydi va to'g'ri xulosalarni topadi.		
10	Tinch va xotirjam yashash baxti.	Hamkorlik, bag'rikenglik, millatlararo hamjihatlik.	Hamkorlik, bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik tushunchalarini farqlaydi. Madaniyatlararo muloqotda odob-axloq qoidalarini qo'llaydi, taqqoslaydi va tahlil qiladi. Hayotiy vaziyatlarga to'g'ri yechim topadi.	6%	2
11	Tarbiya fanining huquqiy asoslari.	“Tarbiya” fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga qo'yiladigan malaka talablari. (DTS) Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish to'g'risidagi 422-sonli qarori.	Tarbiya fanining huquqiy asoslarini bilish, davlat ta'lim standartlari talablarini aniqlaydi. Ushbu fanga qo'yilgan malaka talablarini topadi. Tarbiya fanini o'qitish orqali o'quvchilarda shakllanadigan ko'nikmalarni aniqlaydi.	6%	2
Jami:				100%	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	50%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	42%
3.	Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, xulosalash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish	8%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yor belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Lex.uz. 23.09.2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni. Lex.uz. 07.01.2008.
4. "Volontorlik faoliyati to'g'risida" gi qonun. Lex.uz. 02.12.2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni. Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda gi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 1059-son Qarori. Lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 422-son Qarori. Lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Tarbiya fani uchun umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi 235-sonli buyrug'i, Lex.uz.
9. "Farzandnoma" kitobi O. Mahmudov. "O'qituvchi", Toshkent-2020.
10. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi - o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, B. Xodjayev, M. Artikova. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2020.
11. Tarbiya 5-sinf o'quvchilari uchun darslik. M. Quronov, Yu. Risyukova, O. Tigay, O. Usmanova, S. Xafizova. "G'afur G'ulom", Toshkent-2020.
12. Tarbiya 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. M. Quronov Yu. Risyukova, O. Tigay, O. Usmonova, S. Xafizova. "G'afur G'ulom", Toshkent-2020.
13. Tarbiya 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. D. Kenjayev, N. Ismatova, D. Ro'ziyeva, N. Xolmuxamedova, Sh. Sattorov, Z. Zamonov, Z. Islomov, O. Mahmudov, D. Rahimjonov, S. Akkulova, S. Shermuxammedova, S. Madaliyeva, S. Zokirova, L. Mo'minova. "O'zbekiston" Toshkent-2020.
14. Tarbiya 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. Z. Zamonov, O. Maxmudov, Z. Islomov, D. Ro'ziyeva, D. Rahimjonov, Sh. Sattorov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo'minova, S. Zokirov. "Zamin nashr", Toshkent-2020.

15. Tarbiya 9-sinf o'quvchilari uchun darslik. Sh. Sattorov, D. Ro'ziyeva, Z. Islomov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, Z. Zamonov, O. Maxmudov, D. Rahimjonov, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo'minova, S. Zokirova. "O'zbekiston", Toshkent-2020.

16. Tarbiya 10-sinf o'quvchilari uchun darslik. N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2021.

17. Tarbiya 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2021.

Izoh: *Tarbiya fani bo'yicha test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz. sayti)*